



**TEXNOGEN XUSUSIYATLI FAVQULODDA VAZIYATLARDA
AVARIYA-QUTQARUV VA BOSHQA KECHIKTIRIB BO'LMAYDIGAN
ISHLARNI OLIB BORISH**

*Nasriddinov Jasurbek Muhammadjon o'g'li –
Namangan davlat universiteti stajyor o'qituvchisi.*

*Bannayev Muhammadjon Mamurjon o'g'li –
Namangan davlat universiteti talabasi*

Anotatsiya. Ushbu maqolada Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar tasnifi, avariya-qutqaruv ishlarini olib borish jarayonlari, yong'in-portlashning shikastlovchi omillari, "yong'in xavfsizligi"ning huquqiy asoslari, kimyoviy zaharlangan hududlar haqida ma'lumotlar yoritilgan

Анотации. В этой статье рассматриваются классификация техногенных чрезвычайных ситуаций, процессы проведения аварийно-спасательных работ, повреждающие факторы при пожарах и взрывах, правовые основы "пожарной безопасности", а также информация о химически загрязненных районах

Anotation. This article covers the classification of technogenic emergencies, the process of conducting emergency and rescue operations, the damaging factors of fires and explosions, the legal foundations of "fire safety," and information about chemically contaminated areas

Kalit so'zlar: faoliyat, portlovchi moddalar, Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar, Avariya-qutqaruv ishlari, mashina mexanizmlari, havo transporti, temir yo'l, Kimyoviy zararlangan hudud, Inversiya, Izometriya, Konveksiya, havo transporti, neft, gaz,



Ключевые слова: деятельность, взрывчатые вещества, техногенные чрезвычайные ситуации, аварийно-спасательные работы, машинные механизмы, воздушный транспорт, железная дорога, химически загрязненные районы, инверсия, изометрия, конвекция, воздушный транспорт, нефть, газ

Keywords: activity, explosives, technogenic emergencies, emergency and rescue operations, machine mechanisms, air transport, railways, chemically contaminated areas, inversion, isometry, convection, air transport, oil, gas

Kirish. Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar – bu inson faoliyati yoki texnologik jarayonlar natijasida yuzaga keladigan, odamlar va atrof-muhitga jiddiy xavf soladigan holatlardir. Ushbu vaziyatlar odatda ishlab chiqarish jarayonlaridagi nosozliklar, texnik avariylar, kimyoviy moddalarning chiqarilishi, portlovchi moddalar bilan bog'liq hodisalar yoki energiya manbalaridagi uzilishlar sababli yuzaga keladi. Texnogen favqulodda vaziyatlar butun jamiyatga, sanoat tarmoqlariga, ekologiya va inson salomatligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin, shuning uchun ularning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish dolzarb masaladir.

Авариya-qutqaruv ishlari texnogen favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda amalga oshiriladigan eng muhim faoliyat turidir. Bu ishlarga tezkor va samarali aralashuvni ta'minlash, hayotiy xavflarni kamaytirish, zararni bartaraf etish, atrof-muhitni himoya qilish va sodir bo'lgan hodisani o'rganish kiradi. Shuningdek, favqulodda vaziyatlarga tayyor turish, xodimlarning malakasini oshirish va zarur vositalar bilan ta'minlash ham samarali avariya-qutqaruv ishlari olib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Bunday favqulodda vaziyatlarga vaqtida va samarali aralashish, insonlarning hayoti va salomatligini saqlash, atrof-muhitga zarar yetkazilishining oldini olish va



texnogen xususiyatli avariylarni minimallashtirishni ta'minlaydi. Ushbu maqsadga erishish uchun barcha tegishli organlar, muassasalar va mutaxassislar hamkorlikda ishlashi zarur.

Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar insonlar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek, mashina mexanizmlarni va jarayonlarni buzilishi kabi sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Bularga gidrotexnik inshootlardagi avariylar, halokatlar, yong'in chiqishi xavfi bor obyektlardagi falokat va halokatlar, transport energetika va kommunal tizimidagi, kimyoviy va radiatsion xavfli obyektlardagi falokatlar va shu kabilar kiradi. Masalan,

- bino-inshootlarni buzilishi;
- kimyoviy, radioaktiv zararlanishlar
- yong'in-portlashlar, gidrotexnik inshootlarning buzilishi va shu kabilar

Avariylar va falokatlar iqtisodiyot obyektlarida mashina mexanizmlar, texnologik jarayonlar va hududlarda yuz berishi ehtimoli bo'lgan favqulodda vaziyatlarga bog'liq ravishda kelib chiqadi. Quyida texnogen avariylar, ularning sababi va oqibatlariga to'xtalib o'tamiz.

Yong'in va portlash bilan bog'liq avariya va halokatlardagi; favqulodda vaziyatlarning asosiy sabablari, ularning salbiy oqibatlari:

- yong'in va portlashlarning asosiy sabablari;
- birlamchi va ikkilamchi shikastlovchi omillar;
- yong'indan zaiflikni oshiruvchi omillar;
- yong'in va portlashlarning oldini oluvchi chora-tadbirlar;
- yong'in va portlashdan xavfli obyektlarni toifalarga bo'lish ;
- portlash;
- portlashning asosiy shikastlovchi omillari.

Yong'inga qarshi kurash chora-tadbirlari: huquqiy, m e'yoriy, tashkiliy, muhandis-texnik tayyorgarliklami o'z ichiga oladi.



Yong'in va portlash oqibatida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlardan aholini va hududlarni muhofaza qilish tadbirlari: oldini olish, qutqarish.

O'zbekiston Respublikasining (30. 09. 2009) «Yong'in xavfsizligi to'g'risida»gi Qonuni bunday FVda chora-tadbirlarni aniqlaydigan huquqiy asos hisoblanadi.

Yong'indan saqlash xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Yong'inlar profilaktikasini o'tkazish va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

Yong'inlarni o'chirish, yong'in hududida qolgan odamlarni hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini qutqarish.

Transportdagi avariya va halokatlar:

- havo transportidagi avariya va halokatlar;
- temir yo'l transportidagi avariya va halokatlar;
- avtomobil transportidagi avariya va halokatlar;
- neft, gaz qazib chiqarish skvajinalarida va magistrallarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan avariya;

- Energetika tizimidagi avariya;

- Kommunal xo'jalikdagi avariya;

Yuqorida ko'rsatilgan avariya sharoitida aholining harakati va ish faoliyati:

- xabar berish;

- qutqarish;

- yordam .

Transportning xohlagan turi inson salomatligi va hayoti uchun xavf tug'diradi. Texnik taraqqiyot bir vaqtning o'zida harakatlanish qulayligi va tezligi bilan birga anchagina katta darajadagi xavf-xatarni ham yuzaga keltiradi. Transport avariyasining turidan kelib chiqib, yo'lovchilar ko'plab jarohat va kuyish,



jumladan inson hayoti uchun xavf tugʻdiradigan shikastlarni olish ehtimoli mavjud.

Oʻtkir zaharli kimyoviy moddalar saqlanadigan inshootlarda avariya yoki buzilishlar roʻy berganda, kimyoviy zararlanish hududlari yuzaga keladi. Ushbu hududlarda avariya-qutqaruv ishlarini olib borish uchun kimyoviy holat baholanadi.

Kimyoviy moddalar bilan zararlangan maydon zaharli moddalar konsentratsiyasining havo bilan birgalikda tarqalishda chuqurligi (Ch), kengligi (K) va yuzasi (Yu) bilan xarakterlanadi.

Kimyoviy holatga baho berish uchun quyidagi maʼlumotlarni bilish kerak:

- oʻtkir zaharli kimyoviy moddalarning turi va miqdori;
- meteorologik holati;
- maydonning topografik holati;
- quyilish xarakteri;
- zararlangan havoning tarqalish yoʻnalishi;
- ishchi, xizmatchi va aholining himoyalanganlik darajasi.

Kimyoviy holatga baho berish quyidagi besh izohni oʻz ichiga oladi:

1. Kimyoviy zararlangan hududning maydoni va oʻlchamlarini aniqlash.
2. Zararlangan havoning aholi maskaniga yetib kelish vaqtini aniqlash.
3. Oʻtkir zaharli kimyoviy moddalarning zarar keltiruvchi vaqtini aniqlash.
4. Kimyoviy zararlanish hududidagi kishilarni mumkin boʻlgan yoʻqotishlarni aniqlash.

5. Kimyoviy zararlangan hududni ish hujjatlariga tushirish.

Kimyoviy zararlangan hududning yuzasi va oʻlchamlari koʻp jihatdan meteorologik holat va havoning vertikal (tik) barqarorligili bilan bogʻliq. Shuning uchun zararlangan hududning kattaliklarini topish uchun, dastlab havoning barqarorlik darajasi (inversiya, izotermiya, konveksiya) topiladi.



Inversiya - bu yer yuzasidan yuqoriga balandlik ortishi bilan havo haroratining ko'tarilib borishidir. U Yer bag'irlab joylashgan qatlamlarda kuzatiladi. Bu hodisa ko'proq shabadasiz tunlarda, yer yuzasidan issiqlik jadal ajralib chiqishi natijasida sodir bo'lib Yerning ustki qatlamining va yer bag'irlab joylashgan havo qatlamining sovishiga olib keladi. Inversiya qatlami o'nlab-yuzlab metrni tashkil qiladi. Inversiya qatlamidagi havo haroratining ko'tarilishi 15-200°C gacha bo'lishi kuzatiladi.

Inversiya - qatlami atmosferada ushlab qoluvchi qatlam bo'lib, havoning tik harakatiga to'sqinlik qiladi va natijada uning ostidagi suv bug'i, chang, tutun, bulutlar yig'ilib qoladi. Inversiya o'tkir zaharli kimyoviy moddalar bug'larining tarqalib ketishiga to'sqinlik qiladi. Inversiya ochiq, havoda, shamol tezligining kichik qiymatlarida (4 m/s gacha), quyosh botishidan taxminan bir soatlar oldin boshlanib, quyosh chiqqandan keyin bir soatlar davomida tarqalib ketadi.

Izometriya - havo haroratining muntazam turg'unligi bilan xarakterlanadi. U ko'pincha havo bulut paytlarida, ertalabki va kechki soatlarda, yer yuzasidan 20-30m oralig'ida paydo boiadi. Izometriya ham inversiya kabi o'tkir zaharli kimyoviy moddalarni bug'larini yer bag'irlab joylashgan havo qatlamida uzoq muddat ushlanib qolishiga sabab bo'ladi.

Konveksiya - atmosfera qatlamida havoning vertikal almashuvidir. Konveksiya tufayli momaqaldiroqlar ro'y berishi, sel, do'l yog'ishi mumkin. Ba'zan atmosfera fronti (oqimi) bo'lib, issiq va sovuq havo qatlami ko'chadi, pastdan yuqoriga issiq havo ko'tariladi va har 100 m balandlikka ko'tarilganda 10°C ga soviydi, lekin kondensiya, inversiya tufayli havo juda baland ko'tarilishi mumkin emas. Termik konveksiya yoz kunlari quruqlikda, qish kunlari dengiz ustida hosil bo'ladi.

Kimyoviy zararlanish hududida qutqaruv ishlari. Kimyoviy zararlanish hududida obyektning fuqaro muhofazasi boshlig'i qo'l ostidagilami kimyoviy zaharli modda turini, uning tarqalish yo'nalishini va boshqa zaruriy ma'lumotlar



to'g'risida xabardor qiladi, shuningdek, fuqaro muhofazasi shtab boshlig'i zaharlangan hudud va undagi odamlarni himoya qilish usullari va tadbirlarini aniqlaydi. Zararlanish o'chog'idagi razvedka guruhlarini uchun vazifalar belgilab beriladi. Qutqaruv ishlarini olib borish uchun shoshilinch kuch va vositalar tayyorlanadi. Zararlanish o'chog'ida uyushtirilgan razvedka guruhi kimyoviy zararlanish o'chog'ini o'lchamlarini aniqlaydi, zaharlanish darajasini va shu asosida eng yaqin, qulay yo'llar bilan odamlarni xavfli zaharlangan hududdan olib chiqib ketish yo'llarini belgilaydi.

Himoya inshootlarda yashiringan odamlarni olib chiqib ketish vaqti belgilangandan so'ng, ular zaharlanmagan hududlarga olib chiqib ketiladi. Shu bilan birga shaxsiy himoya vositalarini yechish vaqti e'lon qilinadi. Kimyoviy zaharlanish hududining va shikastlanish manbalarining chegaralariga «Zaharlangan» degan yozuvlar o'rnatiladi

Xulosa, Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarda avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni olib borish masalasi, hozirgi kunda mamlakatlar va jamiyatlar uchun juda muhimdir. Texnogen hodisalar — inson faoliyati natijasida yuzaga keladigan xavfli vaziyatlar bo'lib, ular ko'pincha ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarga olib keladi. Bunday favqulodda vaziyatlarda avariya-qutqaruv ishlari va tezkor chora-tadbirlar hayotiy ahamiyatga ega.

Avariya-qutqaruv ishlari birinchi navbatda insonlarning hayotini saqlash, zararlarni minimallashtirish, atrof-muhitni himoya qilish va texnogen falokatlarning natijalarini kamaytirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shu sababli, bunday vaziyatlarda qulay muhitni yaratish, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish talab etiladi.

Texnogen favqulodda vaziyatlar uchun rejalashtirilgan avariya-qutqaruv ishlari, har bir hodisaning xususiyatiga qarab, maxsus yondashuvni talab qiladi.



Yegulish joylarida tezkor va aniq rejalashtirilgan harakatlar, texnik vositalar va uskunalar bilan ta'minlanganlik vaziyatni bartaraf etish va odamlarning hayotini saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, texnogen favqulodda vaziyatlar oldini olish, xavf-xatarlarni kamaytirish va texnologik jarayonlarning xavfsizligini ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega. Bu sohada yuridik, ilmiy va texnik jihatlarni birlashtirib, xavfsizlikka oid tahlil va choralar ishlab chiqish zarur.

Xulosa qilib aytganda, texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarda avariya-qutqaruv ishlari tizimli, yaxshi tashkil etilgan va samarali amalga oshirilishi kerak. Har bir hodisa uchun tezkor javob choralari, malakali xodimlar va zamonaviy texnologiyalar yordamida kishilar hayotini saqlab qolish, zararlarni kamaytirish va atrof-muhitni himoya qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S. Gazinazarova, O. R. Yuldashev "AVARIYA-QUTQARUV ISHLARI" o'quv qo'llanmasi 245-258-betlar
2. G.Y. Yormatov, O.R. Yuldashev, A.I.Hamrayeva "Hayot faoliyati xavfsizligi" T.:2009 178-186-betlar
3. M. Tojiboyev M.Nig'matov "Hayot faoliyati xavfsizligi" T.: 2011-yil 230-238-betlar
4. Jumaev, N. (2017). *Favqulodda vaziyatlar va xavfsizlikni ta'minlash: nazariya va amaliyot*. Tashkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti. 23-45-betlar
5. Shamsiev, B. S. (2018). *Favqulodda vaziyatlarda avariya-qutqaruv ishlari va texnologiyalar*. Tashkent: Yangi asr avlodi.110-130- betlar
6. Rasulov, A. (2016). *Texnogen xavf-xatarlar va ularning oldini olish*. Tashkent: O'zbekiston texnika universiteti nashriyoti. 56-72-betlar
7. Davronov, K. (2019). *Avariya-qutqaruv ishlarini tashkil etish va boshqarish*. Tashkent: O'zbekiston Favqulodda vaziyatlar vazirligi nashriyoti. 102-120-betlar